

**YOSHLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGI VA TASHABBUSKORLIGINI
OSHIRISHGA DOIR XORIJIY TAJRIBALAR****Qayumov Lazizjon Baxtiyorovich***O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi**Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**Loyiha boshqaruvi (Project management)*

Annotatsiya: *Maqola yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash portalini yaratish bo'yicha xorij tajribasini o'rganish, hamda ularning O'zbekistonda amaliyotga tadbiiq etish uchun mexanizmlarini ishlab chiqish, xulosa va takliflar berishdan iborat.*

Kalit so'zlari: *portal, tajriba, g'oya, loyiha, demokratika, erkinlik, jamiyat, tashabbus, ma'naviyat.*

Bizga ma'lumki, har qanday o'zining kelajagini o'ylaydigan davlat, eng avvalo yoshlarini har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashga alohida davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratadi. Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlar tajribasida mana shunga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jumladan:

Rossiya Federatsiyasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda birlashtirish maqsadida, shuningdek, ularning ijtimoiy muammolari bilan shug'ullanish davlat tomonidan tartibga solinadi va 1992-yil sentabrda hukumat tarkibida "Yoshlar ishlari bo'yicha" alohida davlat qo'mitasi faoliyat ko'rsatadi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti va Mudofaa vazirligi tashabbusi bilan "Yunarmiya" umumrossiya harbiy-vatanparvarlik harakati tashkil etilgan bo'lib, u mamlakatning 84 ta hududidagi o'quvchi-yoshlar, harbiy-vatanparvarlik tashkilotlari, klublar va qidiruv guruhlarini qamrab olgan⁴.

Mamlakatda Yoshlar ishlari bo'yicha Federal agentlikning asosiy faoliyatidan biri – yoshlarni tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularni vatanparvarlik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash hisoblanib, quyidagi tadbirlarga urg'u beriladi:

- umumrossiya harbiy-sport, vatanparvarlik ko'rik-tanlovlari va o'yinlarini tashkil etish;
- maktab va OTMlarda vatanparvalik borasida ijodkorlik loyihalari bo'yicha tanlovlar o'tkazish;
- vatanparvarlik borasida filmlar yaratish, Internet maydonlar (vab-portal) faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'maklashish va boshqalar⁵.

AQShning har bir ta'lim muassasasida har bir yoshning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali yoshlar zarur ijtimoiy, madaniy, aloqa va boshqaruv qobiliyatlariga ega bo'ladilar.

⁴ Социально-молодежная работа: международный опыт / Госкомитет РФ по делам молодежи; Ин-т молодежи; Центр образования молодежи "Демократия и развитие". – Москва: Наука, 997. – С. 118.

⁵ Muhammadjonov G'. Jamiyat barqarorligini ta'minlashda milliy g'oyaning zarurati: milliy va xorijiy tajriba//Xalq so'zi 2023, 5-yanvar.

Mamlakatda yoshlar siyosati konsepsiyasi yoshlarni siyosiy va huquqiy jihatdan rivojlantirishi davlat sektorining minimal ishtirokiga asoslanadi.

Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xayriyalarni amalga oshirish va shu orqali ularda tegishli mafkurani shakllantirish nodavlat sektori zimmasida.

AQShda har bir maktabdagi maktab kengashi, kollejdagi talabalar kengashining qarorlari hamma uchun majburiydir.

Shuningdek, mamlakatning aksariyat maktablarida o'quvchilar har kuni dars boshlanishidan oldin qasamyod qilishadi: "AQShning ramzi bo'lgan bayroq, xudoning ortidagi ozod, adolatli va ajralmas bir millatga sodiqlikka qasamyod qilaman" ("I pledge allegiance to the Flag of the United States of America, and to the Republic for which it stands, one Nation under God, indivisible, with liberty and justice for all")⁶.

Germaniyada yoshlarning 1/4 qismi turli yoshlar jamoat tashkilotlari va ittifoqlariga a'zo bo'lib, ularning aksariyati yoshlar orasida vatanparvarlik va milliy g'oya va mafkurani shakllantirish bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshiradi.

Shuningdek, mamlakatda Yoshlar siyosiy madaniyatini yuksaltirish uchun madaniy tadbirlar bilan birgalikda, tashabbuskorlik va vatanparvarlik bo'yicha loyihalar, tanlovlar, uchrashuvlar, turli seminar va konferensiyalar doimiy ravishda tashkil etilishi yo'lga qo'yilgan.

Germaniyada MITlar davlat tizimiga kirmasdan, ular mahalliy hokimiyat hamda cherkovlar vasiyligida faoliyat yuritadi. Shuningdek, mamlakatdagi korxonalar va tashkilotlar ham o'zining alohida MITsiga ega bo'lishi mumkin.

MITlar (elementarbereich) 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Ularning asosiy vazifasi - bolalarda fikrni ifodalash, muloqot qilish bo'lib, ularning har birida "Tafakkur ustaxonasi" faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu yerda vatanparvarlik va davlat mafkurasi bo'yicha boshlang'ich bilimlar berila boshlaydi.

Maktab pedagog-o'qituvchilari orasida iste'dodsiz o'quvchi yo'q degan asosiy g'oya hukmronlik qiladi. Ular har bir o'quvchining ochilmagan qirralarini kashf etish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi.

Maktablarda "Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!" naqli oltin qoida sifatida qabul qilingan.

Hindistonda kinematografiya va qo'shiqchilik sohalari birinchi o'ringa qo'yiladi. Hindiston o'z aholisi ayniqsa, yoshlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularni tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda vatanparvarlik ruhi va davlat mafkurasini singdirishda qo'shiqlar, badiiy film va reklamalardan faol foydalanadi.

Ushbu bayram doirasida davlat mafkurasini yoshlar ongiga singdirish ishlari amalga oshiriladi. Unga barcha yoshlar jalb etilib harbiylarning savlati va harbiy texnikalari namoyish etiladi. Harbiylarning liboslari mamlakat bayrog'i timsolidan olingan. Mamlakat bayrog'ini tiklayotgan 4 nafar keniyalik haykali - vatanparvarlik va davlat mafkurasi ramzi hisoblanadi.

Hozirgi paytda yoshlar degan davlat resursi to'g'risida unutmazlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda "Yoshlarga oid davlat siyosati" degan tushuncha mavjud. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish har doim ham samarali

⁶ Teshaboyev A. 2021-yil sarhisobi: yoshlarga oid davlat siyosatida mutlaqo yangi tizim amalda. <https://lpiri.uz/022021/>

hisoblanmaydi. Shuning uchun ham bu masalada boshqa davlatlarning tajribasini o'rganish qo'l keladi. Ko'pgina davlatlar hukumatlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri yoshlarga oid siyosatning milliy modelini ishlab chiqish hisoblanadi. Shuning uchun ham yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish jarayonida AQSh tajribasini o'rganish va uni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Finlyandiya Milliy yoshlar Kengashi "Allianssi" tashkil qilingan bo'lib, mazkur organ o'z faoliyatini 1992-yildan buyon amalga oshirib kelmoqda. Uning asosiy maqsadi - yoshlar tashabbuskorligini oshirish, himoya qilish va ularning jamiyatga ijtimoiylashuvini ta'minlashdan iborat.

Turkiyada iqtidorli yoshlarni rag'batlantirishga qaratilgan ko'plab loyihalarni uchratish mumkin. Turkiyalik yoshlarni tashabbuskorligini yanada oshirish hamda ularni qo'llab-quvvatlashning madaniy jihatlaridan biri bu mashhur loyihalardan biri bu - Turkiya yoshlar mukofoti (Türkiye Gençlik Ödülleri) hisoblanadi. Ushbu mukofot turkiyegenclikodulleri.com sayti turkiyalik iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish maqsadida tanlov o'tkazadi.

Tanlov har yili 44 ta yo'nalish bo'yicha jami 440 nafar iste'dodli yoshlar bosh mukofot bilan taqdirlanadi⁷.

Turkiya yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida Respublika ularning bandligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratadi.

Turkiyada yoshlar bandligi masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Mamlakat statistika institutining (TUIK) ma'lumotlariga ko'ra, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik 2018-yilda 34,2%ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 0,7% ga ko'p demakdir. Ish bilan band bo'lgan yoshlarning 18,5% qishloq xo'jaligida, 31,4% sanoatda hamda 50,1% xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi.

Mamlakat yoshlar bandligini ta'minlashda ularning kasbiy malakalarini oshirib borishga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, mazkur yo'nalishda bugungi kunga qadar, 10 ta rivojlanish dasturlari qabul qilingan. Ularning o'ninchisi, (Onuncu-Kalkınma-Planı-2014-2018) 2014-2018-yillarga mo'ljallangan bo'lib, quyidagi muhim tarkibiy qismlardan iborat:

1. Ta'lim tizimini mehnat bozori bilan uyg'unlashtirish;
2. Maktab yoshidagi bolalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish;
3. Yoshlarni ijodiy (madaniyat va san'at) va sport sohasi bilan band qilishga e'tibor qaratish;
4. Kasbiy malakasini muntazam oshirib borishi uchun imkoniyat yaratish.

Aholi, xususan, yoshlar bandligini ta'minlashda Turkiya bandlik agentligi (İŞKUR) asosiy mas'ul tashkilot hisoblanadi. Shuningdek, Yoshlar va sport vazirligi qoshida 300 ga yaqin yoshlar markazlari faoliyat ko'rsatib, yoshlar uchun bepul malaka oshirish kurslari tashkil qilgan.

⁷ Tadjidinov I. Yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishda xorijiy davlatlar tajribasining tashkiliy institutsional tahlili. "Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. Downloads/ZDIF2408.pdf

Turkiya yoshlar siyosatida ta'lim tizimi samaradorligiga katta ahamiyat beriladi. Turkiya Prezidenti Rajab Toyib Erdog'anning 2017-yil 19-mayda (Turkiyada yoshlar va sport kuni) yoshlar bilan uchrashuvida ta'lim uchun ajratilgan mablag'lar 7,5 mlrd. Liradan (2 mlrd. AQSh dollari) 85 mlrd. Liraga (23,7 mlrd. AQSh dollar) oshirilgani va bu davlat budjetining eng katta qismi ekanligini ta'kidlagan. 2015-2019-yillarda Ta'lim tizimini rivojlantirish Dasturiga asosan, yoshlar o'rtasidagi savodxonlik darajasini oshirish, maktablarni erta tashlab ketish holatlariga barham berish va barcha yoshlarning ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratish nazarda tutilgan. Shu bilan birga, Turkiya ta'lim vazirligi mamlakat ta'lim tizimini Yevropa Ittifoqi ta'lim tizimiga yaqinlashtirish, talabalarni Erasmus + dasturlari orqali xorijda tahsil olishini ta'minlash choralari ko'rmoqda.

2016-2017-o'quv yilida davlat ta'lim muassasalarida 14 million 684 ming nafar, xususiy ta'lim muassasalarida 1 million 204 ming nafar yoshlar tahsil olgan. Mamlakat yoshlarning oliy ta'lim olishini rag'batlantirib, bu borada bir qator xususiy oliy ta'lim muassasalarini tashkil etilishini qo'llab-quvvatlagan.

Bugungi kunda Turkiyada ko'plab yoshlar NNTlari faoliyat ko'rsatadi. Quyida ulardan ayrimlarining nomlari keltirilgan:

1. Yoshlar tashkilotlari Forumi (www.genchakli.org). Yoshlar siyosati sohasida faoliyat yuritayotgan jamoat tashkilotlari mazkur Forum asosida yagona platformaga birlashishadi hamda yoshlar masalalariga oid muammolar, ularning huquq va manfaatlari yuzasidan fikr almashishadi.

2. Yoshlar volontyorlar jamoasi Fondi (www.tog.org.tr).

Ushbu NNT tomonidan chekka hududlarda istiqomat qiladigan yoshlarni shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bir qancha tadqiqotlar o'tkazadi. Bundan tashqari yoshlar orasidagi bir qator ijtimoiy muammolarni bartaraf etish yuzasidan ham amaliy ishlar qilinmoqda. Seminar-treninglar, yoshlar oromgohlarini tashkil etish, yoshlar uchun maslahat xizmatlari tashkil qilish va boshqa faoliyat turlari ham NNTning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

3. Yoshlar xizmati markazlari (www.gsm.org).

4. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazlari (www.stgm.org.tr).

5. Yoshlar atrof-muhit uchun (<http://www.habitaticingenclik.org.tr>).

6. Yoshlarni tushunish (www.yfu-turkey.org).

7. Ta'limda volontyorlik (www.tegv.org).

8. Zamonaviy hayotni qo'llab-quvvatlash assosiatsiyasi (www.cydd.org.tr).

9. Umut Fondi (www.umut.org.tr).

10. Turkiya ta'limiga ishonch (www.tev.org.tr).

11. "Güven" ta'lim va salomatlikka ishonch (www.guvenvakfi.org.tr).

12. Kelajak yoshlar assosiatsiyasi (www.gelecekicingenclik.org.tr).

13. Yosh yevropaliklar assosiatsiyasi (www.gencavrupalilar.org.tr).

14. Youth Express Network (www.gencgelisim.org.tr).

Olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan, Turkiyada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Turkiya xorijiy davlatlarga ko'plab migrantlar jo'natishi bilan ham e'tiborga loyiq. Dunyo bo'yicha turkiyalik migrantlar 4,3 mln. nafar bo'lib, ularning aksariyati Germaniya, Fransiya va Niderlandiyada istiqomat qiladi. Oxirgi o'n yillikda xorijga ketayotgan migrantlar orasida yoshlarning soni sezilarli oshdi. Turkiyalik bilimli, iqtidorli yoshlar AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi davlatlarga chiqib ketmoqda.

Mamlakatdagi ichki migratsiya jarayoni ham keyingi yillarda sezilarli ravishda tezlashdi. Bu harakat asosan qishloqdan shaharga tomon rivojlanish tendensiyasi tarzida ko'zga tashlanmoqda.

15-29 yoshlilar orasida ichki migratsiya 55%ni tashkil etmoqda. Buning natijasida Turkiyaning chekka hududlarida bilimli, iqtidorli yoshlar soni kamayib ketmoqda.

Ta'lim tizimiga ajratilayotgan mablag'larning miqdori ortib borayotgan bo'lsada, yoshlarning savodxonlik darajasi yildan yilga tushib bormoqda. Bu haqda "Hurriyet" gazetasi bosh muharriri Murat Yetkin ma'lum qilgan. Jurnalistning bildirishicha, 2018-yil maktablarda o'tkazilgan davlat imtihonlarida 2 mln.260 ming nafar o'quvchi qatnashgan bo'lsa, ulardan 65% matematika va tabiiy fanlardan, 25% ijtimoiy fanlardan o'tkazilgan nazorat savollaridan o'ta olmagan. Jurnalistning ma'lum qilishicha, 41 ming nafar bitiruvchi imtihonlardan 0 ball olgan ya'ni, birorta savolga to'g'ri javob bermagan.

Ta'lim sohasidagi bunday yomon ko'rsatichga, oxirgi o'n yildan buyon doim o'zgartirish kiritilayotgan maktab dasturlari, imtihonlar va baholash tizimi sabab bo'lmoqda. Murat Yetkinning qo'shimcha qilishicha, o'qituvchilar saviyasining tushib borayotgani ham mazkur muammoni yanada og'irlashtirmoqda.

Shunga qaramay, Turkiyada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda bir qator tajriba sifatida foydalanish mumkin bo'lgan ijobiy tendensiyalar ham mavjud.

Ushbu ilg'or tajribani mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida olib borilayotgan ishlarga tadbiiq etish uchun quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

1. Turkiyada yoshlarga oid davlat siyosatini yuritishda davlat organi - Yoshlar va sport vazirligi hamda uning bosh boshqarmalari muhim rol o'ynaydi. Garchi, Turkiyada yoshlar masalalari bilan shug'ullanadigan ko'plab NNTlar bo'lsada, davlatning bu boradagi asosiy siyosatini belgilashda maxsus vazirlik hal qiluvchi o'rin tutadi. O'zbekistonda yoshlar siyosatini amalga oshirishda ham shu kabi davlat tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish sohaga nisbatan munosabatni o'zgartirishi mumkin.

Germaniya o'z yoshlarini tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash hamda ularda milliy g'oyani singdirish va shakllantirishda birinchi navbatda ekologiya, zo'ravonlik, xorijliklarga nisbatan dushmanona munosabat singari muhim prinsipial g'oyalar ko'tariladi.

Germaniyada yoshlarga oid siyosati yoshlarning ijtimoiy qobiliyatlarini ochib berish, ijtimoiy jihatdan mahrum bo'lganlarni himoya qilish va ularga ko'mak berish yo'li bilan ularni mustaqil shaxsga aylanishiga yordam beradi.

Singapurda yoshlar bilan ishlash va ularning intilishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida BMTning "Yoshlar - 2030" strategiyasi hayotga tadbiiq etib kelinmoqda.

- AQShda yoshlarga oid yagona davlat siyosati yuritilmaydi;

• AQShda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid siyosatning neokonservativ modeli yoshlarning eng kam himoyalangan va eng kam ta'minlangan qismiga mablag'larni sarflash va yordamga muhtojlar miqdorini aniq chegaralashni nazarda tutadi⁸.

Boshqa davlatlardan farqli ravishda Yaponiyada yoshlar orasida ishsizlik singari dolzarb muammo mavjud emas.

Bundan tashqari, mamlakatda yoshlarga oid siyosat BMTning Bolalarni himoya qilish Konvensiyasiga asoslanadi.

Parlamentarizm instituti shakllanayotgan O'zbekistondan farqli mamlakat uchun Yaponiya yoshlar palatasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ularda ham milliy xarakter, vatanparvarlik g'oyalari birinchi o'rinda turadi. Shu bois ilmiy tadqiqotimizning xorijiy tajribalar qismida Yaponiyada ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan va amalga oshirishga yo'naltirilgan o'ziga xos tizimni kengroq tahlil qilishga alohida o'rin ajratdik.

Yaponiyada yoshlarga oid davlat siyosati strategiyasi va yoshlarga doir dasturlarning ayrim jihatlari:

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

Yaponiyada Yoshlarga oid siyosatni tartibga soladigan amaldagi qonunchilik 2010-yilda qabul qilingan "Bolalar va yoshlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga ko'maklashish to'g'risidagi" qonunga va ayrim qonun osti hujjatlariga asoslanadi.

Bu milliy siyosat dunyodagi global tendensiyalar sharoitida yoshlarning sog'lom turmush tarzi, ularning yapon jamiyatiga ijtimoiylashuvi va integratsiyasi g'oyalarini ilgari suradi.

Hukumat tarkibida yoshlar taraqqiyoti siyosatini amalga oshirish uchun Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi javob beradi.

Tashkilotlar.

Yaponiyaning yana bir muhim institutlaridan biri – bu 1951-yilda tuzilgan Yoshlar tashkilotlari Milliy Kengashi (Milliy Kengash) Yaponiya umummilliy yoshlar tashkilotlarini birlashtiradi.

1966-yildan Yaponiyada Federal, hududiy va mahalliy darajada yoshlarni rivojlantirish Milliy assambleyasi (Milliy assambleya) faoliyat olib boradi.

Milliy assambleya xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida xalqaro tadbirlarni ham amalga oshirishi nazarda tutilgan.

Parlamentarizm instituti shakllanayotgan O'zbekistondan farqli mamlakat uchun Yaponiya yoshlar palatasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaponiya yoshlar palatasining shakllanishiga AQSh katta ta'sir o'tkazgan bo'lib, ikkinchi jahon urushidan keyin AQShning Yaponiya boshqaruv tizimlarini o'z nazoratiga olganligi bilan izohlanadi.

Hozirgi kunda Yaponiya Yoshlar palatasi – 20 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan aholi qatlamini o'z ichiga olgan notijorat tashkilotdir.

Amalda esa bu palata global harakat bo'lib, uni boshqarish AQShning Missuri shtatidagi Chesterfilddagi shtab kvartiri bilan birga Xalqaro yoshlar palatasi orqali amalga oshiriladi.

⁸ Зеленин А. А. "Национальная модель реализации молодежной политики в Соединенных Штатах Америки". Кемерово: Кемер. гос. Университет, – 2009. С. – 12.

Yaponiya Yoshlar palatasi o‘z faoliyatini 1949-yilda Tokio savdo-sanoat palatasi sifatida urushdan keyin Yaponiyaning iqtisodiyotini tez sur‘atlarda tiklash maqsadida tashkil etilgan.

Hozirgi kunga kelib palata 150 ming doimiy va faxriy a‘zolarga ega va barcha mintaqalarni qamrab olgan.

Ijtimoiy tadbirkorlik ruhining rivojlanishi Yaponiya yoshlar palatasi uchun asosiy dastur hisoblanadi. Bundan tashqari, Yaponiya yoshlar palatasi bolalar uchun javobgarligi, ayniqsa, ayni paytda bolalarni jamiyatga “jalb qilish” va ularni kelajakka tayyorlash mas’uliyati yuklatilganligi qayd etilgan.

Palataning ikkinchi vazifasi fuqarolarning mahalliy hamjamiyatlari va boshqaruv organlari bilan ularning faoliyatlarini rag‘batlantirish yoki “jonlashtirish” maqsadida faol hamkorlik qilish hisoblanadi.

Faoliyatning uchinchi yo‘nalishi har yili hududiy va milliy miqyosidagi davlat boshqaruv organlari uchun yosh professional kadrlar nuqtai-nazaridan hududiy va milliy iqtisodiyot, ta‘lim, ijtimoiy farovonlik masalalari bo‘yicha takliflar berishdan iborat.

Xulosa sifatida yana bir muhim omilni keltirish lozim

- bu kuchli milliy g‘oya va mafkura.

Shuningdek, mamlakatda jamiyat yetakchilar va ijrochilarga aniq taqsimlanishi, qat’iy intizomga rioya qilinishi hamda so‘zsiz itoatkorlik Yaponiyani yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishiga olib kelgan.

Hukumat tarkibida yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish bilan Ta‘lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligi shug‘ullanib, 2003-yilning dekabrda yoshlar taraqqiyoti bo‘yicha Milliy siyosatning strategiyasi ishlab chiqilgan va unda asosiy e‘tibor yoshlar orasida ta‘lim, sog‘liq, mehnat faoliyati hamda farovonlik masalalariga qaratilgan.

Bundan tashqari, mamlakatda yoshlarga oid siyosat BMTning Bolalarni himoya qilish Konvensiyasiga asoslanadi.

2001-yilda Yaponiya Vazirlar Mahkamasida yoshlarni rivojlanishiga ko‘maklashadigan qo‘mita tuzilgan va shu yilning o‘zida yoshlar to‘g‘risida “Oq kitob” qabul qilingan. “Oq kitob” orqali mamlakatda yoshlar siyosati borasida yillik faoliyat natijalari e‘lon qilib boriladi.

Yaponiyada yosh ishchi kuchlari orasida ishsizlik ko‘rsatkichlari mamlakatdagi o‘rtacha darajaga (2016-yil aprelda 3,6%) nisbatan yuqoriroq va 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar orasida 5,3%ni, 25 yoshdan 34 yoshgacha bo‘lgan aholi orasida esa 4,6%ni tashkil etsada, bu ko‘rsatkichlar boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ijobiydir⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42 - moddasida “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”¹⁰, deyilgan.

Mamlakat ijtimoiy-madaniy rivojida iste‘dodli, fidoyi ijodkor kreativ fikrleydigan yoshlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar muammolarini har tomonlama tahlil qilish va o‘rganish,

⁹ <https://www.xabar.uz/xorij/yaponiya-qanday>

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutiya 42 modda. –Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 8.

muammoning kelib chiqish sabab va omillarini nazariy jihatdan mushohadalash, muammo borasida mustaqil fikr yuritish, muammoni hal etishning imkoniyatlarini tahlil qilish va uni yechishning eng maqbul yo'lini topishga qodir bo'lishlari uchun ularda ijodiy tafakkur va kreativlikni parvarish qilish muhim ahamiyatga ega.